

BOSHLANG'ICH TA'LIM-KELAJAK POYDEVORI

Seyilova Dilfuza

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
«Boshlang'ich ta'lim» fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi ta'lim tizimini rivojlantirish, uni yanada takomillashtirish, boshlang'ich ta'limga berilayotgan e'tibor, dunyoning ta'lim sohalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, boshlang'ich ta'lim, ilm-fan, kelajak, imkoniyatlar, yosh avlod, kasb-hunar.

Boshlang'ich ta'lim-bu har bir insonning maktabga qo'yadigan ilk qadamidir. Har bir inson borki, maktabga borib o'qishni, yozishni, sanashni, hisoblashni o'rganadi va ta'lim-tarbiya oladi. Shu boisdan maktabga bosayotgan ilk qadamimizdan biz boshlang'ich sinfga boramiz. Hozirgi vaqtda yurtimizda ta'lim tizimiga, ilm-fanga kuchli e'tibor qaratilmoqda. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich ta'limga e'tibor kuchli hisoblanadi. Sababi har bir kasbning ortida, har bir sohaning orqasida «Boshlang'ich ta'lim» turadi. Misol uchun: bir bola va bir qiz maktabga bordi deylik, ulardan so'rashimiz mumkin: «Sen katta bo'lsang kim bo'lmoqchisan?»-deb. Ulardan biri ya'ni o'g'il bola aytadiki: «Men katta bo'lsam shifokor bo'laman, odamlarni davolayman, ularga yaxshilik qilaman»-deydi. Qiz bola aytadiki: «Men katta bo'lsam o'qituvchi bo'laman, bolajonlarni o'qitaman, ularga ta'lim-tarbiya beraman, o'qishni va yozishni o'rgataman»-deydi. Bu ikkalasini ham gapidan ko'rinib turibdiki, o'qishga qiziqadi, bilimga chanqoq bo'lgisi keladi. Shu sababdan ham bularga boshlang'ich sinfdanoq yaxshi bilim berilishi lozim. Har bir inson boshlang'ich sinfda, avvalo harfni, sonni o'qishni o'rganadi, so'ngra ularni yozishni o'rganib oladi. Harflarni biriktirib so'zlar tuza boshlaydi, sonlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishni o'rganadi, demak sonlar orqali matematikani o'rganib oladi. Harflar orqali ona tilini va o'qishni o'rganadi. Orzusidagi kasbning egasi bo'lishi uchun ham o'qishni-yozishni bilishi kerak. Hech nimani bilmagan odam, savodsiz bo'lsa, o'qishni, yozishni bilmasa ertaga u odam kim bo'ladi? Qanday inson bo'ladi? Degan savolga javob berishimiz shart. Hozirgi vaqtda davlatimizda ta'lim-tarbiyaga e'tibor qaratilayotganligi shunga misoldir. Birinchi Prezidentimiz islom Karimov bekorga aytmaganlar: **Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart»-deb.** Sababi ertangi kunimiz, kelajagimiz biz yoshlarning qo'limizda. Birinchi Prezidentimiz bizga shunday ishonch bildirgan ekanlar, biz yoshlar ularning ishonchini albatta oqlashimiz kerak. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilash uchun, ta'limni yanada rivojlantirish uchun keng qamrovli islohotlar amalga

oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda yangi 2023-yilni **Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»** deb nomlandi.

Shu munosabat bilan ta'lim sohasini izchil kengaytirish ko'zda tutilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilash, ta'lim tizimini jahon andozalari talabiga javob beradigan darajada takomillashtirish uchun chet el davlatlarining ta'limga doir birqancha usullaridan, dasturlaridan foydalanilayapti va bizning ta'lim tizimimiz ham dunyoning rivojlangan davlatlarining ta'lim tizimiga moslashtirilmoqda. XXI-asr axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlangan asri bo'lishi sababli, bizning ta'lim, ilm-fan sohalarimizda ham keng qamrovli axborot kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilmoqda. Hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, oliy va professional ta'lim muassasalariga yetarli darajada texnologiyalar olib kelingan. Bizga mana shunday keng imkoniyatlar yaratilgan, a'lo darajadagi shart-sharoitlar qilinmoqda, bizlar mana shulardan unumli foydalanishimiz zarur, bizlarga berilayotgan imkoniyatlarni qadrlashimiz kerak.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanib, darslarni tashkil etish ta'limda yuqori sifat va samaradorlikka olib keladi. Boshlang'ich ta'lim tizimidagi innovatsion texnologiyalarning yo'nalishlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim mazmunini o'zlashtirishlariga innovatsion yondashish, boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol ta'lim metodlarini tanlash va amalda qo'llash orqali o'quvchilarning faolligini oshirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. [1].

Yuqoridagilardan shuni tushunish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarga qiziqishini, o'qishga ishtiyoqini uyg'otish uchun turli xil interfaol metodlardan-usullardan foydalanishimiz lozim. O'quvchilarni aniqrog'i, boshlang'ich sinf o'quvchilariga darsda faqat nazariy tushunchalar bermasdan, balkim amaliy jihatdan ham bilimlar berishimiz kerak. Baribir kichkintoylarga kundalik hayotida ko'rib yurgan, ko'z o'nggida turgan narsalarni, predmetlardan misol tariqasida foydalanish maqsadga muvofiq bo'lardi. Dars jarayonida shu yuqoridagilardan turli interfaol va didaktik materiallardan foydalansak bo'ladi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarni tirishqoqlikka, chaqqonlikka o'rgatgan bo'lamiz. Dars vaqtida shunday metodlardan foydalansak, ya'ni individual bajariladigan va guruh bilan ishlanadigan metodlardan foydalansak bo'ladi. Individual ishlash orqali o'quvchilarni tezlikka, berilgan topshiriqlarni topish uchun izlanishga, qayta-qayta o'z ustida ishlashga o'rgatamiz.

Guruh bilan birgalikda ishlashda o'quvchilarni do'stlikka, mas'uliyatni his eta olishga, fanga-darsga mehr-muhabbat uyg'otishga yordam bergan bo'lamiz.

Hozirda boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy vazifalari o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash maqsadida ularga mustaqil fikrlash, o'zligini anglash, bilimlarini o'rganish, maktabda va maktabdan tashqari ishlarda faollik, boy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni o'rgatish, o'z shaxsidagi "men"ini

tanitish, yuksak axloqiy fazilatlar va estetik ruhda tarbiyalashdan iborat. Pedagogik yangiliklarni yaratish, ularni baholash, amaliyotda qo'llash va rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi fanga-pedagogik yangilik deyiladi. Pedagogik yangiliklar bu g'oyalar, usullar, vositalar, texnologiyalar yoki tizimlar. [2].

“Boshlang'ich ta'lim-kelajak poydevori”. Ismailova Dilbaray maqolasidan. [1].

“Boshlang'ich ta'lim-kelajak poydevori”. Shavxiyeva Gulondon maqolasidan. [2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy urf-odatlarimizga, qadriyatlarimizga, boy ma'naviyatimizni yuksaltirishga o'rgatmog'imiz kerak. Buyuk tariximizga nazar solsak, o'quvchilarni orasida qadimgi ota-bobolarimizga, ajdodlarimizga hurmat, izzat, mehr-muhabbat kabi munosabatda bo'lish, bir-birlari bilan do'stona aloqada, ahil inoq bo'lishlikni uqtirishimiz lozim. Ta'lim bilan bir qatorda tarbiya ham berishimiz shart. Sababi, et bilan tirnoqni ajratib bo'lmaganidek, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hoshimova M. “Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat”. –T.: TDIU, 2017-yil.
2. Rasulova F., Abdullaeva R. “Pedagogicheskaya etika”. –T.: TDIU 2019.